



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-oktabr

527-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-sentyabrdagi PQ-342-son qarori ijrosi haqida”gi 460-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-sentyabrdagi PQ-342-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-oktyabrdagi 460-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 27-sentyabrdagi PQ-342-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-oktyabrdagi 460-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-sentyabrdagi PQ-342-son qarori bilan:

2024-yil 18-iyulda Toshkent shahrida imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘rtasida Qirg‘iz Respublikasi Issiqko‘l viloyati hududida joylashgan kurort-rekreatsiya xo‘jaligi obyektlari to‘g‘risidagi bitim tasdiqlanganligi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ushbu xalqaro shartnomaning kuchga kirishi uchun zarur bo‘lgan davlat ichki tartib-taomillari bajarilganligi hamda uni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida Qirg‘iziston tomoniga tegishli bildirishnoma yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirganidan keyin uning qoidalari amalga oshirilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni ta‘minlashi belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov